

6-SINF QADIMGI DUNYO TARIXI

1-MAVZU: QADIMGI TARIX MANBALARI. ODAMLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.

Yer yuzida odam paydo bo‘lganidan to milodiy 476-yilda G‘arbiy Rim imperiyasi qulaguniga qadar kechgan voqealar tarix fanida **qadimgi dunyo tarixi** deb ataladi.

Qadimgi bitiklarni o‘rganish bilan **epigrafika**, tangalarni o‘rganish bilan esa **numizmatika** degan maxsus fanlar shug‘ullanadi.

Eng qadimgi shaharlar, yozuv, davlatlar tashkil topishi va rivojlanishi davrini olimlar ilk **sivilizatsiya** deb ataydilar. Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi **Qadimgi Sharqda**, so‘ngra **Yunonistondagi Krit** orolida boshlangan.

Olimlar o‘qigan qadimgi matnlar, masalan, «Piramidalar matnlari» va «Marhumlar kitobi» **misrliklar** tarixi haqida, «Rigveda» – **hindlar**, «Avesto» esa **O‘rta Osiyo xalqlari** tarixidan hikoya qiladi.

Arxeologlar qadim zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda va turarjoylarda qazishma ishlarini amalga oshiradilar.

Antropologlar qadimgi odamlarning suyak qoldiqlari (skelet va bosh chanoqlari)ni sinchiklab tekshirib, ularning tashqi ko‘rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro‘y bergen o‘zgarishlarni o‘rganadilar.

Etnograflar qadimgi odamlarning ko‘pgina urf-odatlari, xo‘jalik va madaniy an’analarini saqlab qolgan, hozirda yashayotgan qabilalar va elatlarni o‘rganishadi.

Moddiy manbalar Arxeologik qazishmalar davomida topilgan mehnat qurollari, sopol idishlar, qurol-aslahalar va zeb-ziynat buyumlari, xullas, qadimda inson qo‘li bilan yaratilgan barcha narsalar.

O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manba “**Avesto**” kitobidir. Qadimgi davr tarixiga doir yana bir qimmatli yozma manba Erondagi **Behistun qoyasi** yozuvlaridir. Bu yozuvlar Fors shohi **Doro I** buyrug‘i bilan qoyaga o‘yib yozilgan.

Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon tarixchisi **Gerodot** turli mamlakatlarga sayohat qilib, “**Tarix**” nomli kitobini yozdi.

Miloddan avvalgi I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi **Strabon** “**Geografiya**” asarini yozgan.

Milodiy I asrda qadimgi Rim tarixchisi **Kvint Kursiy Ruf** «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli asarni yozib, makedoniyalik Aleksandrning O‘rtal Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma’lumotlarni keltirgan.

Milodiy II asrda yunon tarixchisi **Arrian** Makedoniyalik Aleksandrning O‘rtal Osiyoga qilgan harbiy yurishlari haqida “**Aleksandrning harbiy yurishlari**” nomli asar yozgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi - insoniyat tarixining boshlang‘ich davri bo‘lib, bu paytda barcha mehnat qurollari umumiy bo‘lgan va hamma birgalikda mehnat qilgan.

Ibtidoiy to‘da bu – turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan eng qadimgi odamlar jamoasi.

Ibtidoiy jamoalar asta-sekin qarindosh urug‘laridan iborat alohida **urug‘ jamoalariga** bo‘lina boshladi.

Matriarxat - Ilk urug‘ jamoalari ayol kishi – ona atrofida birlashgan.

Patriarxat - Urug‘dosh jamoalarni erkak kishi boshqarib turgan.

Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshlardan yasashgan, shunga ko‘ra arxeologlar insoniyat tarixining boshlanishini “**tosh davri**” deb atashadi.

Tosh davri quyidagi **4** bosqichga bo‘lingan:

Paleolit- qadimgi tosh davri (yunoncha paleos – “qadimgi” va litos – “tosh”)

Mezolit- o‘rtal tosh davri (yunoncha mezos – “o‘rtal” va litos – “tosh”)

Neolit- yangi tosh davri (yunoncha neos – “yangi” va litos – “tosh”)

Eneolit- mis-tosh davri (lotincha eneus – “mis” va yunoncha litos – “tosh”)

Qadimgi tosh davri tarixi **ilk (mil.avv. 1 mln. – 100 ming yil), o‘rtal (mil.avv. 100 – 40 ming yil)** va **so‘nggi paleolit (mil.avv. 40 – 12 ming yil)** davrlariga ajratilib o‘rganiladi.

Olimlar turli mintaqalardan o‘ta sodda tosh mehnat qurollari ya sashni biladigan eng qadimgi odam suyaklari qoldiqlarini topib o‘rganganlar, jumladan, Janubiy Afrikadan – **avstralopitek**, Sharqiy Afrikadagi **Zinj** vodiysidan – zinjantrop, Yava orolidan (Indoneziya) – **pitekantrop**, Xitoy hududidan – **sinantrop**, shuningdek, Germaniyadan – **neandertal** va Fransiyadagi Kromanyon g‘oridan – hozirgi qiyofadagi odam – **kromanyon** suyaklari topilgan.

Ilk paleolit davrining oxirlariga kelib **Buyuk muzlik davri** boshlanadi. Ibtidoiy odamlar o‘ta qattiq sinovga duch keladilar. Bu hol odamlarni yangicha iqlim va turmush

sharoitlariga moslashishga undadi. Bunday paytda faqat kuchlilargina yashab qolishi mumkin edi.

O‘rtal Osiyoda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari quyidagi joy-makonlardan topilgan:

Selungur- Farg‘ona vodiysi; **Ko‘buloq**- Toshkent viloyati

Chopperlar- qo‘pol tosh qurollar bo‘lib, ularning bir tomoni urib o‘tkirlangan.

Odamlarning eng qadimiy mashg‘ulotlari – termachilik va ov qilish **o‘zlashtiruvchi xo‘jalik** deb ataladi.

Boysun tog‘laridan topilgan **Teshiktosh g‘ori** o‘rtal paleolit davri (mil. avv. 100–40-mingyllik) madaniyatining yodgorligi hisoblanadi. Teshiktosh g‘oridan tosh qurollar va ularning parchalari, tog‘ echkisi, kiyik, yovvoyi ot, qoplon, quyon, mayda kemiruvchilar, shuningdek, qushlarning suyaklari topilgan. Teshiktosh g‘oridan topib tekshirilgan, tosh asriga mansub **8–9 yashar neandertal bolaning** suyak qoldiqlari eng mashhur topilmadir. Bola jasadi qabrga ko‘milgan. Jasad atrofiga **tog‘ echkisi** shoxlari qadab chiqilgan.

Totemizm - Odamlar guruhi jamoasining biror hayvon yoki o‘simlik turi bilan qarindoshlik aloqasiga ishonish.

Animizm - Odamni o‘rab turgan muhitdagi har bir narsaning joni va ruhi borligiga ishonish.

Fetishizm - Qadimgi odamlarning u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni daf qilishiga ishonishi.

So‘nggi paleolitga oid g‘orlar devorlaridagi rasmlarning topilishi qadimgi odamlarda diniy e’tiqodlar bo‘lganining isbotidir. Bunday rasmlardan eng qadimiylari quyidagi g‘orlardan topilgan:

Ispaniya - **Altamira** g‘ori; Fransiya - **Lasko** g‘ori; Boshqirdiston (Rossiya) - **Kapova** g‘ori

TAKRORLASH VA MUSTAHKAMLASH

1. Qadimgi dunyo tarixi – tushunchasi

Odam paydo bo‘lganidan boshlab

Milodiy 476-yilda G‘arbiy Rim imperiyasi qulagunicha bo‘lgan davr

2. Maxsus fanlar

Epigrafika – qadimgi bitiklarni o‘rganadi

Numizmatika – tangalarni o‘rganadi

3. Ilk sivilizatsiyalar

Qadimgi Sharqda

Yunoniston (Krit oroli)

4. Qadimgi yozma manbalar

“Piramidalar matnlari”, “Marhumlar kitobi” – Misr

“Rigveda” – Hindiston

“Avesto” – O‘rta Osiyo

5. Qadimgi tarixni o‘rganadigan mutaxassislar

Arxeologlar – qazishmalar

Antropologlar – suyak, bosh chanoq orqali tashqi ko‘rinishni tiklaydi

Etnograflar – urf-odatlar, madaniyat

6. Moddiy manbalar

Mehnat qurollari

Sopol idishlar

Qurol-aslahalar

Zeb-ziynat buyumlari

7. O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha qimmatli yozma manbalar

“Avesto” – eng qadimgi yozma manba

Behistun qoyasi yozuvlari – Fors shohi Doro I

8. Qadimgi tarixchilar

Gerodot – “Tarix”, mil.avv. V asr

Strabon – “Geografiya”, mil.avv. I asr oxiri

Kvint Kursiy Ruf – “Makedoniyalik Aleksandr tarixi”, milodiy I asr

Arrian – “Aleksandrning harbiy yurishlari”, milodiy II asr

9. Ibtidoiy jamiyat bosqichlari

Ibtidoiy jamoa tuzumi – birgalikda yashagan va umumiyligi mehnat qilgan jamoa

Ibtidoiy to‘da – turmush va mehnat umumiyligi negizida birlashgan odamlar

Urug‘ jamoalari – qarindoshlik asosida birlashgan jamoa

10. Urug‘ bosqichlari

Matriarxat – ayol boshchiligidagi

Patriarxat – erkak boshchiligidagi

11. Dastlabki mehnat qurollari

Tosh qurollari

Tosh davri – 4 bosqich:

1. Paleolit – qadimgi tosh (mil. avv. 1 mln – 12 ming yil)

Ilk: 1 mln – 100 ming

O‘rta: 100 – 40 ming

So‘nggi: 40 – 12 ming

2. Mezolit – o‘rta tosh

3. Neolit – yangi tosh

4. Eneolit – mis-tosh

12. Eng qadimgi odamlar topilmalari

Avstralopitek – Janubiy Afrika

Zinjanthrop – Sharqiy Afrika

Pitekantrop – Yava oroli

Sinanthrop – Xitoy

Neandertal – Germaniya

Kromanyon – Fransiya

13. Buyuk muzlik davri

Ilk paleolit oxirlarida

Odamlar yangi iqlimga moslashdi

14. O‘rta Osiyodagi topilmalar

Selungur – Farg‘ona

Ko‘lbuloq – Toshkent

Chopperlar – qo‘pol tosh qurollar

15. Eng qadimgi mashg‘ulotlar

Termachilik

Ovchilik

→ O’zlashtiruvchi xo’jalik

16. Teshiktosh g‘ori (Boysun)

O‘rta paleolit davri

8-9 yoshli Neandertal bolaning qabri

Hayvon suyaklari va tosh qurollar

17. Diniy e’tiqodlar

Totemizm – hayvon/o‘simlik bilan qarindoshlik

Animizm – barcha narsada jon va ruh bor

Fetishizm – buyumlar omad keltiradi yoki balodan saqlaydi

18. Eng qadimgi qoyatosh rasmlar

Altamira g‘ori – Ispaniya

Lasko g‘ori – Fransiya

Kapova g‘ori – Rossiya